



## XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING QARORI

Ishtixon ko'chasi, 4-uy +998 66 629 1521 qarshiyevmamor3@gmail.com

2024-yil 25-may

VI-121-93-7-95-K/24

Ishtixon tumani

### **Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida tuman hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i F.Chinorovning hisoboti haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin- qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-sonli Farmoniga, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasining 2024-yil 6-aprel kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlisining 10-sonli bayonnomasining 19-bandiga, Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi kotibiyatining 2024-yil 16-apreldagi 15-15/170-sonli xatiga hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 121-sessiyasi,

#### **QAROR QILADI:**

1. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida tuman hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i F.Chinorovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi, tuman hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo'limi (F.Chinorova) bilan birgalikda bayonning 4- va 17-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida:

- 5 (besh) kun muddatda aniq va manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqib tasdiqlasin va ijrosini ta'minlanganligi yuzasidan har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar xalq deputatlari tuman Kengashiga asosli ma'lumotlar taqdim etib borsin.

3. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (D.Sindarov) tegishli mutasaddilar bilan hamkorlikda bayonning 5-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida:

- 5 (besh) kun muddatda aniq va manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqib tasdiqlasin va belgilangan muddatlarda ijrosini ta'minlanganligi yuzasidan har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar xalq deputatlari tuman Kengashiga asosli ma'lumotlar taqdim etib borsin.

4. Tumandagi tijorat banklari bayonning 7-bandiga asosan:

- bir hafta muddatda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga oid tavsiyaviy biznes loyihani barcha mahallalarga yetkazilishini ta'minlasin;

- xotin-qizlar tadbirkorligi uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar, ularning shartlari haqida targ'ibot materiallarini (buklet) tayyorlash hamda mahalladagi "xonadonbay" o'rganish jarayonida oilalarga tarqatsin va targ'ibotini tashkil etsin;

- tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishni va uni kengaytirish istagidagi xotin-qizlarga biznes loyihalarni sifatli ishlab chiqishda har tomonlama ko'maklashsin hamda kreditlarning o'z vaqtida ajratilishini ta'minlasin;

- tadbirkorlikni boshlagan xotin-qizlarga o'z faoliyatini to'liq yo'lga qo'yguniga qadar kuzatib borish tizimini joriy etish, zarur hollarda amaliy yordam ko'rsatib borish choralarini ko'rsin.

5. Tuman soliq inspeksiyasi (Z.Isoxonov) bayonning 8-bandiga asosan:

- mahallalardagi "Xonadonbay" o'rganish jarayonida aniqlangan norasmiy band bo'lgan xotin-qizlarning mehnat faoliyatini rasmiylashtirsin, o'zini o'zi band qilgan xotin-qizlarning kafolatlangan mehnat stajiga ega bo'lish imkoniyatlarini keng targ'ib qilish ishlarini tizimli yo'lga qo'ysin;

- hududlardagi davlat ro'yxatidan o'tmagan holda faoliyat yuritib kelayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlasin hamda legallashtirish yuzasidan aniq, manzilli va muddatli chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlasin va ijrosi yuzasidan har oy yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga mahallalar va sohalar kesimida asosli ma'lumotlar taqdim etib borsin.

6. Tuman "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi (Z.Baitov) bayonning 9-bandiga asosan:

- mahallalardagi o'rganishlar davomida aniqlangan tibbiy, psixologik, ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlarga manzilli yordam ko'rsatilishini, ularning muammosi to'liq hal etilgunga qadar kuzatuvni yo'lga qo'yish, zarur holda qo'shimcha yordam ko'rsatilishini tashkil etsin;

- nogironligi bo'lgan xotin-qizlarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bandligini ta'minlash, ularning ish o'rinlariga moslashib ketishiga ko'maklashib borsin.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Aliqulova)ga bayonning 19-bandiga asosan:

- xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka kenga jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni komissiya yig'ilishlarida, sessiyalarda muhokama qilib borish, unda mutasaddi rahbarlarning hisobotini eshitish hamda vazifalar ijrosini sifatli ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralarni ko'rib borish tavsiya etilsin.

8. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib, tegishli mansabdor shaxslar har oyning belgilangan sanalarida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

9. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), "Ishtixon ovozi" gazetasi muharriri (M.Rabbimova), tuman hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo'limi (F.Chinorova), O'zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (K.Yavkochdiyev) xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Aliqulova) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



KIYAMOV NURALI  
KUVANDIKOVICH